

KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI MOLIYALASHTIRISH AMALIYOTINING XORIJ TAJRIBASI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

FOREIGN EXPERIENCE OF SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP FINANCING PRACTICE AND ITS INDIVIDUAL FEATURES

¹Egamberganov
Mirzabek Odilbek o'g'li

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti.

ORCID: 0009-0000-2400-1989,

G-mail: mirzobekegamberganov@gmail.com

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Mazkur maqolada kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishning xorijiy mamlakatlarda shakllangan amaliy mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar misolida kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlashda qo'llanilayotgan bank kreditlari, mikromoliyalashtirish institutlari, venchur kapital, kredit kafolatlash jamg'armalari, davlat subsidiyalari, grantlar hamda raqamli moliyaviy platformalarga asoslangan muqobil moliyalashtirish vositalarining institutsional va funksional xususiyatlari o'rganilgan. Shuningdek, xorijiy tajribada kichik biznesni moliyalashtirishda risklarni kamaytirish, kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va moliyaviy inklyuziyani ta'minlashga qaratilgan mexanizmlar, jumladan, davlat-xususiy sheriklik asosidagi moliyalashtirish modellari, kredit reytingi va skoring tizimlari, moliyaviy texnologiyalar (FinTech) asosidagi innovatsion yechimlar tahlil etilgan. Maqolada kichik biznes subyektlarining moliyalashtirishga bo'lgan ehtiyojlari va real sektor bilan integratsiyalashgan holda moliyaviy resurslardan samarali foydalanish masalalari iqtisodiy-statistik va taqqoslama tahlil usullari asosida baholangan.

Eng. - This article analyzes the practical mechanisms for financing small business entities that have been established in foreign countries. In the course of the research, the institutional and functional characteristics of financial support instruments used to promote small businesses in both developed and developing countries were examined. These instruments include bank lending, microfinance institutions, venture capital, credit guarantee funds, government subsidies, grants, and alternative financing tools based on digital financial platforms. In addition, the study explores mechanisms aimed at reducing risks, expanding access to credit resources, and enhancing financial inclusion in small business financing within international practice. Particular attention is paid to public-private partnership-based financing models, credit rating and scoring systems, as well as innovative solutions driven by financial technologies (FinTech). The article also evaluates the financing needs of small business entities and the efficiency of financial resource utilization in integration with the real sector, employing economic-statistical and comparative analysis methods.

Kalit so'zlar:
Keywords:

❖ kichik biznes, moliyalashtirish, bank kreditlari, tadbirkorlik, davlat budjeti, FinTech, real sektor, davlat-xususiy sheriklik.

❖ small business, financing, bank loans, entrepreneurship, state budget, FinTech, real sector, public-private partnership.

Kirish.

Jahonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun ko'rsatilayotgan bank xizmatlari sifatini oshirish, ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, moliyalashtirish hajmini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) hisobotlariga ko'ra "mamlakatlardagi 65 million kichik biznes subyektlarining 40 foizi har yili 5,2 trln. AQSh dollari miqdorida moliyalashtirilmagan ehtiyojga egaligi, global darajada kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish darajasidan 1,4 barobar ko'pdir. Global moliyaviy tafovutning eng katta ulushi, Sharqiy Osiyo va Tinch okeani mintaqasida jami 46 foizni tashkil etsa, Lotin Amerikasi va Karib havzasi mintaqasida 23 foizni, Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasida nisbatan pastroq 15 foizni tashkil etadi" [3]. Kichik biznes subyektlarini bank kreditlari orqali o'z vaqtida pul mablag'lari bilan ta'minlash jarayonidagi yechilishi lozim bo'lgan muammolarning saqlanib qolayotganligi ushbu sohaga alohida e'tibor qaratilishini taqozo etmoqda.

Jahon miqyosida kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish hamda barqaror kapital manbalarini shakllantirishga qaratilgan innovatsion moliyaviy yechimlarni ishlab chiqish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, bank tizimida mijozlarga maslahat berish va kredit ajratish xizmatlarini standartlashtirish va unifikatsiyalash, kichik va o'rta korxonalarining iqtisodiy o'sishga qo'shadigan hissasini oshirish, shuningdek, ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash orqali ayollarga tegishli kichik va o'rta korxonalar ulushini kengaytirish dolzarb vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Shu bilan birga, kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish jarayonida yuzaga keladigan kredit risklarini samarali boshqarish va muvofiqlashtirish, portfelli kreditlash mexanizmlarini rivojlantirish, kredit buyurtmalarini ko'rib chiqish jarayonlarining

ortiqcha murakkabligi sababli kredit resurslariga tezkor kirish imkoniyatlarining cheklanib qolishi kabi muammolar ilmiy tadqiqotlar markazida turibdi. Kichik biznes tarmoqlarida aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojning yuqoriligi saqlanib qolayotgani, shuningdek, kichik biznes subyektlarini rivojlantirishda bank kreditlarining samaradorligini oshirish masalalari ham alohida tahlil qilinmoqda. Mazkur muammolarni hal etish yo'llarini aniqlash, moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish hamda kichik biznes subyektlarining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha nazariy va amaliy jihatlarini qamrab olgan kompleks ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Kichik biznesni moliyalashtirishning metodologik asoslarini rivojlanishining asosiy yo'nalishlari bilan bog'liq ko'p qirrali tadqiqot ishlari jahonning nufuzli ilmiy, tahliliy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, sohaga aloqador xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar tomonidan amalga oshirilmoqda.

Nobel mukofoti sovrindori J. Stiglitz kichik biznesni moliyalashtirishda asosiy muammo sifatida axborot asimmetriyasini ko'rsatadi. Uning fikriga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda bu muammo mikromoliyalashtirish institutlari, kredit skoring tizimlari va davlat ishtirokidagi moliyaviy qo'llab-quvvatlash dasturlari orqali bartaraf etilmoqda [5]. Stiglitz xorijiy tajribada kichik biznesni moliyalashtirish davlat va bozor mexanizmlarining o'zaro uyg'unligi asosida amalga oshirilishini ta'kidlaydi.

A. Berger kichik biznesni moliyalashtirishda munosabatli bank xizmatlari (relationship lending) muhim ahamiyatga ega ekanligini qayd etadi. Uning tadqiqotlariga ko'ra, xorijiy amaliyotda banklar kichik biznes subyektlari bilan uzoq muddatli hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali kredit

risklarini kamaytiradi, kreditlash jarayonini soddalashtiradi va moliyalashtirish hajmini oshiradi [6]. Bu yondashuv Yevropa davlatlari va AQShda keng tarqalgan.

Sh.Mustafakulov kichik biznes va tadbirkorlikni moliyalashtirishda xorijiy tajribaning asosiy ustun jihati sifatida davlat tomonidan moliyaviy infratuzilmani rivojlantirish va moliya bozorlarining diversifikatsiyalashuvini ko'rsatadi. Uning fikricha, rivojlangan mamlakatlarda kichik biznesni moliyalashtirish faqat bank kreditlari bilan cheklanmay, lizing, faktoring, venchur moliyalashtirish va grant mexanizmlari orqali amalga oshiriladi [7]. Olim ushbu tajribani milliy sharoitga moslashtirish kichik biznesning moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi.

B.Berkinov tadqiqotlarida kichik biznesni moliyalashtirishda xorijiy amaliyotda keng qo'llanilayotgan risklarni bo'lishish mexanizmlari va kredit kafolatlash tizimlari alohida o'rin tutishini qayd etadi [8]. Olimning fikriga ko'ra, davlat va xususiy sektor hamkorligiga asoslangan kafolat jamg'armalari kichik biznes subyektlarining kreditga layoqatliligini oshiradi, banklar uchun risk darajasini pasaytiradi va moliyalashtirish hajmining kengayishiga zamin yaratadi.

A.Abdug'aniyev tadqiqotlarida kichik biznesni moliyalashtirish samaradorligi bevosita bank kreditlari, davlat kafolatlari va imtiyozli moliyalashtirish mexanizmlarining uyg'unligiga bog'liqligini ta'kidlanadi [9]. Olimning fikricha, xorijiy tajribada keng qo'llanilayotgan kredit kafolatlash jamg'armalari va subsidiyalangan foiz stavkalari kichik biznes subyektlarining moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytiradi hamda kredit risklarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda empirik va nazariy darajadagi usullardan, ya'ni induksiya,

deduksiya, tahlil va sintez, kuzatuv usullaridan foydalaniladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Xalqaro hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OECD) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kichik va o'rta biznes subyektlari iqtisodiyot tarmoqlarida innovatsiyalarni joriy etishda barcha iqtisodiy tizimlar uchun muhim element sifatida e'tirof etilgan. Mazkur subyektlar barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda kambag'allik darajasini qisqartirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, OECD tadqiqotlarida qayd etilishicha, "biznes yuritish qoidalari va ularning bajarilishi mamlakat ichida, ayniqsa federal tuzilishga ega davlatlar va yirik iqtisodiyotlarda sezilarli darajada farqlanishi mumkin" [4].

Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish bo'yicha xorijiy tajribani o'rganishda Bangladeshning "Grameen Bank" modeli alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Chunki "Grameen Bank" kichik biznes va mikro tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish sohasida uzoq yillik tajribaga ega bo'lgan yetakchi moliya instituti hisoblanadi. Ushbu bank tomonidan ishlab chiqilgan mikromoliyalashtirish modeli, ayniqsa, garov ta'minotisiz kreditlash, guruhli kreditlash mexanizmlari hamda ijtimoiy yo'naltirilgan moliyaviy xizmatlari bilan ajralib turadi.

"Grameen Bank" kreditlash amaliyotining umumiy xususiyatlarini tahlil qilish va ularni O'zbekiston bank tizimida mavjud kichik biznesni moliyalashtirish mexanizmlari bilan qiyoslash asosida bir qator ilmiy xulosalar chiqarish mumkin. Jumladan, kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, moliyaviy inklyuziyani ta'minlash, kredit risklarini minimallashtirish hamda kichik biznes subyektlarining iqtisodiy faolligini oshirishda ushbu modelning ayrim elementlarini milliy bank amaliyotiga moslashtirish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur modelning birinchi muhim jihati kreditni insonning iqtisodiy huquqi sifatida e'tirof etishidir. Ushbu yondashuvga ko'ra, har bir shaxs mamlakatda yaratilgan iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunida tadbirkorlik subyektlarining imtiyozli kreditlanish huquqi belgilanganligi mazkur yondashuvning huquqiy asosini tasdiqlaydi [1].

Ikkinchi jihat - "Grameen Bank" faoliyatining asosiy maqsadi kambag'al oilalarning, ayniqsa ayollarning, iqtisodiy faolligini oshirish va qashshoqlikni kamaytirishga qaratilganligidir. Ushbu yondashuv O'zbekistonda oilaviy tadbirkorlik va xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari bilan uyg'unlik kasb etadi.

Uchinchi muhim xususiyat kreditlash jarayonining garovsiz va ishonchga asoslanganligidir. "Grameen Bank" an'anaviy bank tizimidan farqli ravishda kredit layoqatliligini hujjatlar va garov bilan emas, balki qarz oluvchining ijtimoiy mas'uliyati va javobgarligi orqali baholaydi. Ushbu yondashuvni milliy bank amaliyotiga moslashtirish kichik biznesni moliyalashtirish samaradorligini oshirishi mumkin, biroq bu bank va mijoz o'rtasidagi o'zaro ishonch darajasiga bevosita bog'liq.

To'rtinchidan, "Grameen Bank" an'anaviy banklarning kambag'allarni "kreditga layoqatsiz" deb baholash amaliyotini inkor etib, muqobil kreditlash metodologiyasini ishlab chiqqan. Mazkur yondashuv asosida ushbu tadqiqot doirasida "yo'l berish" metodi taklif etildi. Ushbu metodga ko'ra, iqtisodiy jihatdan asoslangan biznes g'oyaga ega shaxslarga ayrim majburiy cheklavlarni vaqtincha yumshatish orqali garovsiz kredit ajratish kichik biznesni rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish va soliq bazasini kengaytirishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, "Grameen Bank"ning

"bank mijozga borishi kerak" degan tamoyili moliyaviy inklyuziyani kengaytirishga qaratilgan bo'lib, bu yondashuv O'zbekistonda bank tizimini isloh qilish jarayonida keng qo'llanilmoqda.

Nihoyat, mazkur model kambag'allikni individual muammo emas, balki institutsional va siyosiy kamchiliklar natijasi sifatida talqin qiladi. Shu bois qashshoqlikni kamaytirish faqatgina moliyaviy yordam orqali emas, balki insonlarning tashabbuskorligi, mehnat salohiyati va ijodiy imkoniyatlarini qo'llab-quvvatlash orqali amalga oshirilishi lozimligi ta'kidlanadi.

"Grameen Bank" mijozlarni to'lov qobiliyatiga ko'ra ikki guruhga ajratadi: kredit to'loviga layoqati yuqori bo'lganlar va kredit to'loviga layoqatliligi past bo'lganlar. Kredit to'loviga layoqati yuqori mijozlarga bank kreditlarni bozor stavkalarida ajratadi. Bu yondashuv bir tomondan bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, ikkinchi tomondan esa aholining qashshoqlik darajasidagi qatlamiga imtiyozli stavkalarda berilgan kreditlar natijasida yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotishlarni qoplash imkoniyatini yaratadi [10].

Shuningdek, "Grameen Bank"ning qishloq joylarida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlariga ajratiladigan kreditlar resurs manbai sifatida davlat budjeti mablag'laridan tashkil etilgan "Kredit fondlari" orqali moliyalashtiriladi. Ushbu mexanizm kichik biznes subyektlariga moliyaviy qo'llab-quvvatlashni barqaror va tizimli tarzda ta'minlash imkonini beradi.

Hindistonlik taniqli bankir, kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish uchun SMEcorner.com internet-platformasining asoschisi Samir Bhatia fikricha, kichik biznes subyektlari davlatlar iqtisodiyotidagi o'sish va innovatsiyalar uchun asosiy manba hisoblanadi. Biroq, ularning milliy iqtisodiy tuzilmadagi hal qiluvchi rolga qaramay, Hindistonda kichik biznes subyektlari taraqqiyotiga ta'sir etuvchi bir qator

qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Shu nuqtai nazardan, o'sib borayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining muammolarini qisman hal qilish va aylanma mablag'larning mavjudligini ta'minlash maqsadida SMEcorner.com platformasi tashkil etilgan [12].

Shuningdek, mobil ilovalar orqali berilayotgan kreditlarning foiz stavkalari nisbatan yuqori bo'lishi ham e'tiborga loyiqdir. Shu sababli, respublikamizda internet-platformalar orqali kredit berish tizimida mavjud muammolarga alohida e'tibor qaratish zarur. Xususan, 2022-yil 1-martdan boshlab «Agrobank» ATB, AT «Xalq Banki» va «Mikrokreditbank» ATB tomonidan kreditlar Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida to'liq raqamlashtirilgan yagona elektron platforma orqali ajratilishini ta'minlash vazifasi belgilangan [2]. Bu tartib tadbirkorlik subyektlariga kredit ajratishda inson omilining kamayishiga, moliyalashtirish jarayonining soddalashtirilishiga va tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarining kengayishiga xizmat qiladi. Shu asosda, kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishda inson omilini bosqichma-bosqich kamaytirish va kredit buyurtmalarini raqamlashtirish zarurati tobora ortib bormoqda.

MDH davlatlarida kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish tizimlari ichida Rossiya Federatsiyasi amaliyoti alohida o'rin egallaydi. Rossiya misolida an'anaviy moliyalashtirish vositalaridan biri sifatida kafolat asosidagi moliyalashtirish usulidan keng foydalaniladi. Ushbu tizim kichik biznesni moliyalashtirishda soddaligi bilan ajralib turadi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida (masalan, Ispaniya, Daniya, Avstriya) yangi korxonalarni tashkil etish, yangi bozorlarga kirish va biznesni tashkillashtirishni rag'batlantirish uchun maxsus kafolat institutlari faoliyati yo'lga qo'yilgan. Kafolatli tizimlar yordamida biznes subyektlariga uzoq muddatli yoki qulay shartlardagi kreditlar

berilishi mumkin. Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, kafolatlarning mavjudligi ehtimoliy zararlar uchun tashkil etilgan zaxira miqdorini kamaytiradi, boshqa risklarni qoplash uchun sarmoyani bo'shatadi va banklarning balansida yangi aktivlar hajmini oshirish imkonini yaratadi.

Shuningdek, Rossiya Federatsiyasida kichik va o'rta biznes subyektlarini mutanosib tartibga solish asosida qo'llab-quvvatlash tizimi mavjud. Mutanosib tartibga solish yondashuvi mijozlar doirasi va ularning faoliyat hajmini hisobga olib, bozorning turli segmentlarida banklar o'rtasida samarali raqobatni ta'minlaydi. Samarali raqobatni shakllantirish nuqtai nazaridan, mutanosib tartibga solish biznes subyektlari uchun kredit resurslaridan foydalanishni kengaytirish va tenglashtirishga xizmat qiladi.

Rossiya Federatsiyasida kichik va o'rta biznes subyektlarni moliyalashtirish amaliyotida "uzun pullar" tamoyilidan foydalanadi. "Uzun pullar" atamasi uzoq muddatli investitsiya yoki kreditlarni anglatadi. Rossiya bank tizimi iqtisodiyotda uzun pul ishlab chiqarishni rag'batlantirish uchun izchil chora-tadbirlar amalga oshirmoqda. Ushbu masalani hal etishga qaratilgan banklarni tartibga solish mexanizmlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Loyihalarni moliyalashtirish – so'nggi o'n yillikda moliyaviy faoliyatning yangi turi jadal rivojlanib bormoqda. Ushbu turdagi moliyalashtirishning asosiy ahamiyati yirik infratuzilma loyihalari uchun uzun pulni jalb qilishdir. Rossiya Federatsiyasi hukumati investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat dasturlari doirasida budjet mablag'lari hisobidan tashkil etilgan loyihalarni moliyalashtirish mexanizmini joriy qilgan.


2. Sekyuritizatsiya – barqaror pul oqimlariga ega bo'lgan aktivlar (masalan, ipoteka yoki avtokreditlar portfeli, aktivlar lizingi, tijorat ko'chmas mulk) bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlar chiqarish

orqali moliyalashtirishni jalb qilish shakli.

3. Birlashish va sotib olish operatsiyalarini tartibga solish – xo'jalik yurituvchi subyektlarning turli faoliyat turlarini moliyalashtirish iqtisodiy o'sishning aniq natijalariga yoki bozor samaradorligiga salbiy ta'sir qilmasligi kerak. Umumiy holda, birlashish va sotib olish jarayoni biznes va kapitalni mustahkamlashga xizmat qiladi, biroq ushbu operatsiyalar orqali olingan qarzlar ko'pincha korxonalarning operatsion daromadlari hisobidan qoplanadi. Natijada,

korxonalarning qarz yukining ortishi va operatsion daromadlarning oshmasligi kabi salbiy oqibatlar yuzaga keladi. Shu sababli, Rossiya banki iqtisodiy o'sishga hissa qo'shmaydigan ustav kapitaliga investitsiyalarni prudensial tartibga solish orqali nazorat qiladi.

Kichik va o'rta biznes subyektlarini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlashda «Vneshekonombank» muhim rol o'ynaydi. Ushbu bank orqali moliyalashtirish jarayoni quyidagi tartibda amalga oshiriladi (1-rasm).



1-rasm. Vneshekonombank orqali kichik va o'rta biznes subyektlarini moliyalashtirish jarayoni [11]

Malayziya iqtisodiyotida kichik biznes subyektlarining o'rnini yuqori bo'lib, mamlakatdagi barcha korxonalarning 97 foizini tashkil etadi (907 065 ta korxona), ular esa yalpi ichki mahsulotning 36 foizini va ish bilan bandlikning 65 foizini ta'minlaydi. Ko'pincha, kichik va o'rta korxonalar faoliyatini yaqin do'stlar yoki qarindoshlaridan olingan qarz mablag'lari orqali boshlashadi. Biroq, biznesni boshlash, uni kengaytirish, yangi mahsulotlar sotib olish va ish o'rinlarini ko'paytirish uchun katta moliyaviy resurslar talab etiladi. Shunga qaramay, Malayziyada moliya institutlari kichik biznes subyektlariga kredit berishda ehtiyotkor bo'lib, kredit olish jarayonini murakkablashtirgan. Ushbu to'siqlar quyidagi omillar bilan bog'liq:

1. Kichik tadbirkorlarning kredit olishda yetarli ta'minotga ega emasligi;

2. Kredit olish imkoniyatining cheklanganligi;

3. Aholining biznes yuritish uchun bilim va malaka darajasining pastligi.

Hozirgi kunda kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida bir qator dasturlar ishlab chiqilgan. Ularga quyidagilar kiradi: «Biz-Mula» start-up kompaniyalari uchun, «Biz-Wanita» ayol tadbirkorlar uchun, «Green Technology Financing Scheme» esa barqaror energiyani qo'llab-quvvatlash loyihalarini moliyalashtiradi. Shuningdek, Kredit Kafolat Korporatsiyasi tadbirkorlikdagi risklarning 50 foizdan 90 foizgacha qoplashini ta'minlaydi va qarzlar 2–3,5 foiz stavkalarida beriladi. Ushbu kredit dasturlaridan Malayziyadagi barcha kichik biznes subyektlari foydalanish huquqiga ega.

Jahon miqyosida kichik biznes subyektlari mamlakatlar iqtisodiyotida muhim o'rin

egallaydi. Ularning iqtisodiy faoliyatdagi hisyasi, bandlikni ta'minlashdagi roli va yalpi ichki mahsulotdagi ulushi davlatlar o'rtasida sezilarli farq qilishi mumkin. Quyidagi jadvalda ayrim rivojlangan va rivojlanayotgan

mamlakatlarda kichik biznesning tutgan o'rne, uning soni, har 1000 kishiga to'g'ri keladigan miqdori, YaIMdagi ulushi va bandlikdagi hisyasi keltirilgan.

1-jadval

Jahonning ayrim davlatlarida kichik biznesning tutgan o'rne*

Davlatlar nomi	Kichik biznes subyektlari soni (ming)	Har 1000 kishiga to'g'ri keladigan kichik biznes subyektlari soni	YaIMdagi ulushi	Bandlikdagi ulushi	Ishchilar soni
AQSh	19300	74	50-52	54	300
Germaniya	2290	37	50-54	69,5	200-300
Yaponiya	3820	50	52-55	70	300
Buyuk Britaniya	2930	46	50-53	56	300
Fransiya	1980	35	55-62	54	300
Italiya	3920	68	57-60	71	300
O'zbekiston	1190	14,6	54-55	70-74	11-200

*Muallif hisob-kitoblari.

1-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik biznes subyektlari soni ichida AQSh yetakchilik qiladi, mamlakatimizda esa jami 1190 mingtani tashkil etishini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, agar 1000 kishiga to'g'ri keladigan kichik biznes subyektlarining sonida ham AQSh 74 tani tashkil etib bu ko'rsatkichdahan yuqori darajada, mamlakatimizda esa 14,6 tani tashkil etishini ko'rishimiz mumkin.

Kichik biznes subyektlari uchun asosiy muammolardan biri ularning moliyaviy resurslari yetarli emasligi hisoblanadi. Ushbu muammoni hal etishda kredit muhim vosita hisoblanadi, kichik biznes subyektlari uchun kredit arzon, uzoq muddatli va olishga qulay bo'lishi lozim. Shu nuqtaiy nazardan, mamlakatimizda yoshlarnig tadbirkorlik faoliyatiga e'tibor qaratish va ularning o'z biznesini boshlashlari uchun banklar tomonidan imtiyozli kreditlar ajratish muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, yoshlar orasida moliyaviy savodxonlikni oshirish maqsadida turli biznes g'oyalar tanlovlarini tashkil etish samarali natija beradi.

Xulosa va takliflar.

Kichik va o'rta korxonalar ko'pchilik davlatlar iqtisodiyotida, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda katta rol o'ynaydi. Kichik va o'rta korxonalar butun dunyo bo'ylab korxonalarning aksariyat qismini tashkil qilib, global iqtisodiy rivojlanishga muhim hissa qo'shmoqda. Ular butun dunyo bo'ylab korxonalarning qariyb 90 foizini va bandlikni 50 foizdan ortig'ini ta'minlamoqda. Shuningdek, rasmiy kichik va o'rta korxonalar rivojlanayotgan mamlakatlarda milliy daromadining 40 foizigacha hissa qo'shadi. Jahon banki mutaxassislarining hisob-kitoblarga ko'ra, 2030-yilga borib, kichik va o'rta korxonalar tomonidan 600 million ish o'rne yaratilishi prognoz qilinmoqda, bu esa kichik va o'rta korxonalarni rivojlantirishni dunyodagi ko'plab hukumatlar uchun ustuvor vazifaga aylantirishi kutilmoqda. Rivojlanayotgan bozorlarda rasmiy ish o'rinlarining ko'pchiligi kichik va o'rta korxonalar tomonidan yaratilgan bo'lib, ular 10 ish o'rinidan 7 tasini yaratadi. Biroq, kichik va o'rta korxonalarni kreditlash bilan bog'liq muammolar kichik va

o'rta korxonalar o'sishining asosiy cheklovlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Bugun dunyoda taraqqiy etgan banklar kichik biznes subyektlariga katta e'tibor qaratib, ular uchun kredit siyosatini va xizmat ko'rsatish jarayonlarini a'lohida tarzda amalga oshirib to'liq imkoniyat bilan ushbu turdagi mijozlarga xizmat ko'rsatishni kengaytirib bormoqda. Shuningdek, aniq maqsad bilan bozor subsegmentatsiyasida o'z imkoniyatlarini birinchi o'ringa qo'yadi va yuzaga keladigan risklarni innovatsion, yuqori prognoz qilinadigan, texnologiyaga asoslangan

kreditlash yondashuvi hamda chakana kreditlash orqali boshqaradi.

Mamlakatlarda kichik va o'rta korxonalarning omon qolishi, o'sishi va unumdorligi uchun eng muhim cheklovlardan biri moliyalashtirish bo'lib qolmoqda. Kichik va o'rta biznes subyektlarini kreditlashdagi yetishmovchiliklar rivojlanayotgan va rivojlangan bozorlarda, hamda moliyaviy inklyuzivlikni yanada kengaytirish bo'yicha turli siyosat choralari qabul qilgan mamlakatlarda ham barqaror tarkibiy xususiyat bo'lib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi O'RBQ-328-son Qonuni. 2012-yil 2-may.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining daromad manbaini kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-55-son qarori. 2021-yil 20-dekabr.
3. Jahon banki hisoboti, (<https://www.worldbank.org/en/topic/smefinance> ma'lumotlari asosida).
4. Doing-Business-2020-Comparing-Business-Regulation-in-190-Economies.
5. Stiglitz J.E., Weiss A. Credit Rationing in Markets with Imperfect Information // American Economic Review. – 1981. – Vol. 71, No. 3. – P. 393-410.
6. Berger A.N., Udell G.F. The Economics of Small Business Finance: The Roles of Private Equity and Debt Markets // Journal of Banking & Finance. – 1998. – Vol. 22. – P. 613-673.
7. Mustafakulov Sh.X. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning xorijiy tajribasi // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2019. – №4. – B. 45-52.
8. Berkinov B.B. Kichik biznes subyektlarini kreditlashda risklarni boshqarish masalalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 156 b.
9. Abdug'aniyev A. Kichik biznes va tadbirkorlikni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018. – 180 b.
10. Gupta, V., Hanges, P., Dorfman, P., 2002. Cultural clusters: methodology and findings. J.World Bus. 37 (1), 11-15. Karolyi, G.A., Taboada, A.G., 2015.
11. Рыбин Е.В. Опыт поддержки малого и среднего бизнеса в России через банки развития//Банковское дело. – Москва, 2011. - №10. - С. 31-32.
12. www.SMEcorner.com